



OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARINI MA'NAVIY
RIVOJLANISHIDA O'ZBEK MILLIY ESTETIKASI

Otaboyeva Umida Ilhomovna

Jizzax davlat pedagogika unversteti o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11059558>

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada estetik tarbiya, axloqiy tarbiya, san'at va hayot go'zalligi haqida so'z boradi.

Аннотация: В данной научной статье говорится об эстетическом воспитании, нравственном воспитании, искусстве и красоте жизни.

Abstract: This scientific article talks about aesthetic education, moral education, art and the beauty of life.

Kalit so'zlar: Estetika, go'zallik, sa'nat, ulug'vorlik, badiiy adabiyot, nafosat, estetik hissiyot, estetik zavq, estetik did.

Key words: Aesthetics, beauty, art, magnificence, fiction, sophistication, aesthetic feeling, aesthetic pleasure, aesthetic taste.

Ключевые слова: Эстетика, красота, искусство, великолепие, вымысел, изысканность, эстетическое чувство, эстетическое удовольствие, эстетический вкус.

O'zbek milliy Estetikasi taraqqiyoti tarixan mintaqaviy tabiatga ega bo'lib, uning ildizlari dastlab Avesto, keyin moniylikning muqaddas kitobi Xuastuanift (Za.)ga borib taqaladi. Islom dini qabul qilingach, milliy mintaqaviy Estetika Qur'oni karim oyatlari va Hadisi sharifdagi "Alloh go'zal va U go'zallikni sevadi" degan tamoyil asosida rivojlandi. Bunda mashshoiyyunlik (Forobiy, Ibn Sino) bilan yonmayon tasavvuf Estetikasida kubroviylik (Najmiddin Kubro), jo'mardlik (Pahlavon Mahmud), naqshbandiya (Alisher Navoiy) singari tariqat mutafakkirlarining go'zallik, san'at va san'atkor borasidagi qarashlari muhim ahamiyat kasb etdi. O'zbek Estetikasi tarixida, ayniqsa, Temuriylar davri alohida o'ringa ega; Navoiyning "Mahbub ul-qulub", "Majolis unnafois", "Mezon ulavzon" asarlari, 15—16-asrlarda qator tazkiralari va musiqa nazariyasi borasidagi risolalar o'zbek Estetikasi rivojiga ulkan hissa bo'lib qo'shildi. Xonliklar va chorizm mustamlakasi davrida esa o'zbek Estetikasi ko'proq tazkiralarda (Fazliy) va she'riy shakllarda (Furqat) o'z ifodasini topdi. O'zbek milliy Estetikasidagi yuksalish 19-asr oxirlari — 20-asr boshlariga to'g'ri keladi. Bu davrda ma'rifatchijadid mutafakkirlar yangicha estetik g'oyalarni o'rta tashladilar, badiiy adabiyotda, dramaturgiya janriga va zamonaviy teatr san'atiga asos soldilar. Anbar Otinning "Qarolar falsafasi" (1910), Fitratning "Oila" (1914), keyinroq "Adabiyot qoidalari" (1926) risolalari yuzaga keldi,





Cho'lponning badiiy adabiyot, teatr san'atiga bag'ishlangan turqum maqolalari e'lon qilindi. Lekin sho'rolar hukmronligi davridagi totalitarizm barcha falsafiy fanlar qatori Estetikani ham sinfiylik va partiyaviylik tamoyillari asosida biryoqchamalikka, mahdudlikka, soxtalikka mahkum qildi. O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng Estetikaga alohida e'tibor berila boshlandi.

Estetika nafosat, did, go'zallik, xunuklik, ulug'vorlik, tubanlik, fojiaviylik, kulgililik, mo'jizaviylik, hayolilik singari kategoriyalar bilan ish ko'radi. Ular orasida nafosat tushunchasi alohida o'rin egallaydi. U bir tomondan, estetik anglashning barcha jihatlarini (estetik hissiyot, estetik zavq, estetik did, estetik muhokama va boshqalar), ikkinchi tomondan, estetik xususiyatlarni — amaldagi go'zallik, ulug'vorlik, fojiaviylik, kulgililik va h.k. jihatlarini o'z ichiga oladi. Ana shu keyingi jihati bilan nafosat ba'zan Estetikaning predmeti sifatida ham qabul qilinadi.

Estetikaning tadqiqot ob'yektlari ichida san'at alohida o'rinni egallaydi, u qadimdan to hozirgi kungacha eng ko'p tadqiq etilgan estetik soha hisoblanadi. Estetikaning bu borada san'atshunoslik fanlaridan farqi shundaki, u o'z ob'yektiga falsafiy nazariy jihatdan yondashadi. Estetika san'atni — san'atkor, san'at asari, san'at asarini idrok etuvchi shaxsdan iborat yaxlit tizimda olib o'rganadi, barcha san'at turlari uchun zarur bo'lgan umumiy qonunqoidalarni ishlab chiqadi. Mas, adabiyotshunoslikdatch qofiya nazariyasini musiqaga yoki haykaltaroshlikka nisbatan qo'llab bo'lmaydi. Estetikadagi kompozitsiya yoki uslub nazariyasi esa me'morlikdan tortib badiiy suratkashlikkacha bo'lgan hamma san'at turlariga taalluklidir. Ayni paytda Estetika san'atning tabiati, uning ijodiyligi va boshqalar jihatlarini tadqiq etadi; badiiy oqimlar va yo'nalishlarning, ijodiy uslublarning mohiyatini o'rganadi.

Estetika falsafiy ilm sifatida ko'plab ijtimoiy va tabiiy fanlar bilan aloqadordir. Uning etika bilan aloqasi alohida diqqatga sazovor. Bu ikkala fanning o'zaro yaqinligi, avvalo, inson xatti-harakatining ko'p hollarda ham axloqiylik, ham nafosat uyg'unligidan iborat ekanligida; 2dan, Estetikaning asosiy tadqiqot ob'yekti bo'lmish san'at mohiyatan ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi kurashning badiiy in'ikosi sifatida doimo dolzarb axloqiy muammolarni ko'tarib chiqadi; 3dan, Estetikaning ba'zi tushunchalari etika uchun ham birdek xizmat qiladi; 4dan, Estetika o'rganadigan xulqiy go'zallik sohasi axloq bilan bevosita bog'liq. Ayni paytda ikkala fan bir-biriga juda o'xshash ekan degan taassurot tug'ilmasligi kerak. Estetika har bir ob'yektga aniq, muayyan yondashuvni talab qiladi, etika esa hamma uchun umumiy bo'lgan qonunqoidalarni, hikmatlarni ishlab chiqadi. Estetikaning psixologiya bilan aloqasi ham juda muhim: har





ikkala fan ruhiy holatlarni o'rganadi. Har ikkala fan uchun umumiy bo'lgan san'at psixologiyasi va badiiy ijod psixologiyasi degan maxsus yo'nalishlar mavjud. Estetika va sotsiologiyaning o'zaro munosabatlarida san'atni hamkorlikda o'rganish masalalari muhim. San'at asari alohida inson shaxsiga e'tibor qilgani holda, jamiyatni ijtimoiy munosabatlar tizimi, ijtimoiy tuzilma sifatida badiiy tadqiq etadi, ayni paytda sotsiologik tadqiqotlar uchun o'ziga xos material bo'lib xizmat qiladi; sotsiologiya jamiyat bilan san'atning o'zaro aloqalarini, san'atning ijtimoiy vazifalarini; san'atkorning jamiyatdagi o'rni, mavqei, kitobxon va tomoshabinlarning ijtimoiydemografik holatlarini; shaxs ijtimoiylashuvida san'atlar va san'at asarining ahamiyatini tahlil qiladi. Mazkur muammolarni o'rganish uchun Estetika va san'at sotsiologiyasi sohasi mavjud. Estetikaning dinshunoslik bilan aloqasi ham katta ahamiyatga ega; din va san'at doimo birbirini to'ldirib keladi, ko'p hollarda biri boshqasi uchun yashash sharti bo'lib xizmat qiladi. Asrlar mobaynida, ana shu aloqalar natijasi o'laroq, san'at asarining o'ziga xos ko'rinishi — diniybadiiy asar vujudga keldi. Mas, Shohizinda me'moriy majmui, Kyoln jomesi, Rembrandtning "Muqaddas oila" asari, "Abu Muslim jangnomasi" qissasi va boshqalar Estetika bunday asarlarni tadqiq etar ekan, albatta, dinshunoslik fani bilan hamkorlik qiladi. Estetikaning pedagogika bilan bog'liqligi estetik tarbiya masalalariga borib taqaladi; ped. ham estetik tarbiya bilan shug'ullanadi. Lekin u alohidaalohida, mustaqil qismlarga bo'lingan holda, turli yosh va sohalar uchunmaxsus belgilangan tarbiya tarzida olib boriladi. Mas, maktabgacha tarbiya, o'quvchilar tarbiyasi, jismoniy tarbiya va h.k. Estetika esa nafosat tarbiyasining umumiy qonunqoidalarini ishlab chiqadi — inson tug'ilganidan boshlab, to o'limigacha o'tadigan umr bosqichlari uchun taalluqli bo'lgan tarbiya falsafasi sifatida ish ko'radi. Estetikaning semiotika (belgilar va belgilar tizimlari haqidagi fan) bilan aloqadorligi keyingi paytlarda yanada teranroq tadqiq etilmoqda. Ma'lumki, har bir san'at asarining mazmunmohiyati muayyan belgilar vositasida namoyon bo'ladi, ya'ni bilish va baholash natijalari bo'lmish semiotik hamda pragmatik axborotni o'zida mujassam qilgan san'at asari o'sha axborotni yetkazib berishga ham mo'ljallangan; u san'at turiga qarab turlicha belgilar — harflar, chiziqlar, notalar va h.k. orqali amalga oshiriladi. San'atning semiotik belgilar bilan bog'liq ana shu tomonlarini — kommunikativvositachilik jihatlarini semiotika o'rganadi; bu borada alohida tuzilmasemiotik deb nomlangan nazariy yondashuv ham mavjud. Shuningdek, Estetika barcha san'atshunoslik fanlari hamda tabiat Estetikasi nuqtai nazaridan ekologiya, axborot nazariyasi jihatidan kibernetika bilan aloqadorlikda ish ko'radi.





Xulosa o'rnida Badiiy va estetik tayyorgarlikni rivojlantirish muammosi oliy pedagogika maktablarida talabalarni kasbiy va pedagogik tayyorlashning eng dolzarb muammolaridan biridir. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida mutaxassislarni tayyorlash sifatini oshirishga bog'liq bo'lgan ko'plab muammolar yechimi ko'zda tutilgan. Ular orasida O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimidagi ta'lim reytingi talabalar o'rtasida estetik boy dunyoqarashni, yuksak ma'naviyatni, madaniyatni va ijodiy fikrlashni shakllantirishni o'z ichiga oladi. Estetik qadriyatlar va badiiy manfaatlartizimida ma'lum bir guruh odamlar qabul qilingan va jamoada ishlaydigan tegishli ko'nikmalarni egallashni, tegishli munosabatlarni va muayyan tajribani shakllantirishni o'z ichiga oladi. Estetik madaniyat hamma uchun ochiqdir. Shubhasiz, har bir kishi ma'lum darajada ma'lum darajada estetik madaniyatning har xil turlari va darajalarini tushunishi mumkin, bu inson o'zi qo'yadigan vazifalardan biridir. Badiiy va estetik madaniyat qator omillarni o'z ichiga oladi, ulardan biri insonning qobiliyatiga, ikkinchisi uning qobiliyati va bilimiga bog'liq va uch yuztasi faqat keng madaniy kontekstda ajralib turadi. Ularning asosiylari quyidagilardan iborat: 1) hissiy, badiiy tuzilmalarga sezgirlikva badiiy va estetik qadriyatlarga sezgirlikka bo'lingan estetik sezuvchanlik: tajriba, ya'ni san'at asarlari bilan bevosita aloqa, reproduksiya orqali bilvosita aloqa va boshqalar, o'z havaskorlik san'ati; 2) san'atning ayrim turlarining tarixi, ma'lum san'at turlarining nazariyasi, estetika sohasidagi bilimlar va san'at bilan shug'ullanadigan boshqa fanlar; 3) san'at bilan bog'liq tajribani hayot davomida tarqatish qobiliyati; san'atning ichki tuzilishi va estetik shaxsiyatning tizimli rivojlanishi, umumiy shaxsiyat o'zgarishlarini boshqarish; 4) imitatsion bo'lmagan faoliyat, badiiy tajribadan foydalanish qobiliyatidan iborat estetik zukkolik. O'qituvchi kasbiga ijobiy munosabat, badiiy, shaxsiy va estetik qadriyatlarga yo'naltirish asosan shaxsning rivojlanishini belgilab beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdulla Sher, B. Xusanov, E.Umarov. Estetika. Toshkent-2008
2. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. Toshkent: 2000 y. Vatan tuyg'usi. A.Ibrohimov, X.Sultonov, N.Jo'rayev, Toshkent: 1996 y.
3. O'zbekiston milliy entsiklopediyasi. Toshkent: 2000 y.
4. Zakirova Umida Ilhomovna. International Journal of Research. Possibilities For The Use Of Spiritually – Moral Education Of Our Great Ancestors In Innovative Pedagogical Technologies. 1

